

# SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

3

2024  
ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096



**SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMYJ JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

**№ 3, 2024**



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro‘yxatidan  
qayta o‘tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096

**Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**  
*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**Tahrir hay’ati**

<b>D. Sayfullayev</b>	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)</i>
<b>D. Muxiddinova</b>	<i>filologiya fanlari doktori (mas’ul kotib)</i>
<b>A. Mannonov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>R. Xodjayeva</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>Sh. Shomusarov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>Q. Omonov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>U. Muxibova</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>X. Xamidov</b>	<i>filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>B. Abduhalimov</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>A. Xodjayev</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>M. Is’hoqov</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>A. Doniyorov</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>X. Fayziyev</b>	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
<b>D. Xodjimuratova</b>	<i>tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>Sh. Yovqochev</b>	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
<b>N. Abdullayev</b>	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
<b>A. Vahobov</b>	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
<b>R. Abdullayev</b>	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
<b>I. Mavlanov</b>	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
<b>R. Bahodirov</b>	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
<b>E. Izzetova</b>	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
<b>G. Glizon</b>	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
<b>A. Shonazarova</b>	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
<b>Ono Masaki</b>	<i>Yaponianing Tsukuba universiteti professori</i>
<b>Li Dji In</b>	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
<b>V. Mesamed</b>	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
<b>A. Gurer</b>	<i>Turkiyaning Ankara universiteti professori</i>
<b>A. Vorobyov</b>	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
<b>G. Avda</b>	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
<b>S. Kuraym</b>	<i>Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>A. Tohir</b>	<i>Misr Arab Respublikasining “Al-Hivar” siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
<b>H. Baydemir</b>	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

**Nashrga tayyorlovchilar:**

**J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, G. Xushnazarova**

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi  
lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi  
Olyi Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz  
web-site: www.tsuos.uz

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

### ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

<i>Ochilov O.</i> Hu Shi til islohotlarining zamonaviy xitoy she’riyati shakllanishidagi ahamiyati .....	5
<i>Yuldasheva X.</i> Milliy identifikatsiya arab adabiy personajি timsolida.....	16
<i>Sharaxmetova M.</i> “Boburnoma”ning urducha tarjimasida milliy koloritning berilishi .....	22
<i>Kabirova N.</i> Rahnavard Zaryob asarlarida hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari.....	32

### TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Sodiqov Q.</i> Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari.....	45
<i>Umarova M. Yakubova Sh.</i> Tarjimashunoslikda “Milliy kolorit” tushunchasi masalalari .....	65
<i>Jumaniyazov M.</i> «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Al-Unmuzaj» asarining qiyosiy tadqiqi.....	74
<i>Abdurahmonova M.</i> Hindistonda fanlarni o‘qitishda interfaol usullarni qo‘llash tajribasi .....	93
<i>G‘iyosov B.</i> Xitoy ta’lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta’lim shiorlarining leksik-semantik tasnifi .....	101

### MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Karimov A.</i> Xitoyning amaliy san’ati Dzyandjining rivojlanish bosqichlari.....	115
<i>Faromarzi F, Vohidova M.</i> Mirzo Muhammad Rahimbek va uning “Esdaliklar” asari .....	125
<i>Xubbaliyeva M.</i> “Du Huanning borgan joylari xotirasi” sayohatnomasida Markaziy Osiyo.....	141

### XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

<i>Ulug‘ov N., Saidolimov S.</i> Siyosiy nutq va uning jamoatchilikka ta’siri .....	154
<i>Sadibaqoyev H.</i> AQSHning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilari va ular bilan munosabatlarning strategik ahamiyati .....	163
<i>Abdullahayev J.</i> Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik munosabatlarining zamonaviy tarixi.....	176



<b>Güngör Şahin, İsmail Polat.</b> The Role of Energy Security in the Case of Kazakhstan – People's Republic of China Relations.....	189
<b>Normayeva M.</b> Siyosiy ishtirok va ayollarning siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi omillar (Turkiya Respublikasi misolida) .....	208
<b>Medihanur Argali.</b> Cultural Diplomacy: Fraternal Ties Between Uzbekistan and Azerbaijan.....	220
<b>Bekdurdyeva G.</b> Xalqaro munosabatlarda “Yashil nazariya” asoslari va unga doir yondashuvlar .....	241
<b>Gafarov I.</b> Strategic approaches of Russia and China vis-a-vis Central and South Asia.....	255
<b>Xodjayev L.</b> Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlashda xorijiy tilni o'rgatishning xususiyatlari.....	268
<b>Abdurasulov J.</b> Xalqaro munosabatlarda geosiyosiy vaziyatlar hamda Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy holati .....	281

**FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY**

<b>Mavru洛ova M.</b> Sharq mutafakkir-allomalari shaxs madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish to'g'risida.....	297
--	-----

5. 胡适: 《尝试集》, 《胡适全集》第 10 卷, 安徽教育出版社, 2003 年
6. 李孝悌 .胡适与白话文运动再评估——从清末的白话文谈起.清末的下层社会启蒙运动:1901 -1911.石家庄 :河北教育出版社, 2001.287.
7. Озоджон Очилов. "Хитой янги шеъриятининг эволюцион шаклланиш хусусиятлари (XIX асрнинг охири-XX асрнинг бошлари)" Sharq ma'shali / Восточный факел, vol. 14, no. 2, 2022, pp. 20—25.

***YULDASHEVA XILOLA****Dotsent, f.f.n., TDSHU***Milliy identifikasiya — arab adabiy personajи timsolida**

*Annotatsiya.* Milliy identifikasiya va uning arab adabiyotidagi personajlar timsolida aks etishi mavzusida tahliliy va tanqidiy yondashuvlarni o'z ichiga olgan ushbu maqola, arab adabiyotining klassik va zamonaviy asarlaridagi muhim personajlar orqali milliy identifikasiyaning qanday shakllangani va rivojlangani, shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekstlardagi o'zgarishlarning personajlar xarakteri va ularning milliy identifikasiyadagi roli tahlil qilingan.

*Kalit so'z va birikmalar:* Arab adabiyoti, milliy identifikasiya, personajlar tahlili, madaniy o'zgarishlar, klassik va zamonaviy asarlar, madaniyat va identifikasiya, milliy o'zlikni anglash.

*Abstract.* This article explores the theme of national identity and its reflection in the characters of Arabic literature, examining both classical and contemporary works. Through extensive research in literature and cultural studies, the author delves deeply into the mechanisms of formation and development of national identity through literary characters, revealing various ways of understanding and expressing national self-awareness. The paper also investigates how changes in cultural and social contexts affect the characters' nature and their role in national identification. Based on literary analysis and critical reflection, the article illuminates the dynamic essence of national identity within the complex network of cultural and social relationships, providing readers with a profound understanding of the rich and diverse world of Arabic literature.

**Keywords and expressions:** Energy Security, Energy Diplomacy, Kazakhstan, China.

*Аннотация.* В данной статье рассматривается тема национальной идентификации и её отражения в образах персонажей арабской литературы, анализируя как классические, так и современные произведения. Проведя обширные исследования в области литературы и культурологии, глубоко анализируется механизмы формирования и развития национальной идентичности через литературные персонажи, раскрывая разнообразные способы понимания и выражения национального самосознания. Статья освещает динамическую сущность национальной идентичности в сложной сети культурных и социальных взаимоотношений, предоставляя читателям глубокое понимание богатого и разнообразного мира арабской литературы.

**Ключевые слова:** Энергетическая безопасность, энергетическая дипломатия, Казахстан, Китай.

XX asrda kelib chiqqan va XXI asrga meros bo‘lib o‘tgan ekzistensial muammo shundaki, inson boshqa odamlardan, adabiy qahramonlardan, o‘zining haqiqiyligidan, atrofidagi dunyodan borgan sayin begonalashib bormoqda. Identiklikni izlash, ya’ni insonni hayotdagi u yoki bu hodisalar bilan aynanlashtirishni qidirish hozirgi zamonning dolzarb gumanitar muammolaridan biriga aylandi. Depersonalizatsiya, anomiya, marginallashuv, rollar to‘qnashuvi va inson mavjudligining boshqa shakllari kabi ijtimoiy hodisalarda mujassamlangan o‘zlikni yo‘qotish XX asr boshlarida shakllangan adabiy an’ananing manbayi bo‘lib xizmat qildi.

Adabiy qahramon obrazining milliyligi va o‘ziga xosligi muammosi, fikrimizcha, bir tomondan, Mixail Mixaylovich Baxtin ta’riflagan muallif va qahramon asaridagi ikki tomonlama boshqaruvi bilan, boshqa tomonдан esa, asar qahramoni bo‘lgan ijodiy subyekt faoliyatining protsessual tabiatini, qiymati, semantik yo‘nalishining dinamik-keskin nisbati va o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq<sup>1</sup>.

Ijodiy faoliyat jarayonida qahramon obrazining o‘ziga xosligi insonning, ma’lum bir shaxsning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy, mafkuraviy, falsafiy, axloqiy, psixologik, ijtimoiy ahamiyatga ega tarkibning ayrim tomonlariga munosabat orqali shakllanadi hamda “milliy identiklik” tushunchasi badiiy vositalar yordamida yaratilgan tasvirning tana-vizual to‘liqligini o‘z ichiga oladi. Asarda tasvirlangan birgina obraz zamirida yuzlab, minglab insonlarga xos xislat va belgilarni umumlashtirilib, jamlab berilgan. Shu sababli, yozuvchining mahorati, uslubi va tasvirlash san’ati haqida fikr yuritilganda ham, asosan, shu unsurlardan kelib chiqib ish tutish zarur bo‘ladi. Mana shunga ko‘ra, badiiy asarni o‘qiganda sezib turamizki, asarda tasvirlangan kishilar hayotdagi jonli odamlarning aynan o‘zi emas, balki, aksincha, jonli odamlarning eng muhim, tipik xislatlarini o‘zida jamlagan, badiiy bir butunlikka yig‘gan, sintezlangan shaklidir. Umumlashtirish badiiy obrazning muhim xususiyati bo‘lib, busiz badiiy obraz yaratib bo‘lmaydi.

Yozuvchilar o‘z asarlarida qahramonlarning qiyofasi, ismlari, kiygan kiyimlari va voqealar sodir bo‘layotgan joylar orqali muayyan madaniyat va millatlarning aniq tasvirini yaratishga harakat qiladilar. Bu tasvirlar orqali o‘quvchilar asarning qaysi millatga xos ekanligini osonlik bilan tushunishlari mumkin.

Misol uchun, agar qahramonning ismi Juan yoki Mariya bo‘lsa va u kishilar flamenko raqsini o‘ynab, chiroyli Ispan kiyimlarini kiyishgan bo‘lsa, o‘quvchi darhol bu voqealar Ispaniya madaniyatiga oid ispan xalqi identikligi ekanligini tushunishi va u millatni identifikatsiya qilishi mumkin. Shuningdek, agar asarda ko‘pincha sushi, samuraylar va geyshalar haqida so‘z borsa, bu Yaponiya madaniyatiga xos jihatlardir. Bunday ma’lumotlar orqali o‘quvchilar asarga yanada chuqurroq kirishib ketishadi va uning mazmunini, madaniy kontekstini yaxshiroq

<sup>1</sup> Бахтин, Михаил Михайлович. Собрание сочинений: в 7 т. Т. 1: Философская эстетика 1920-х годов / М. М. Бахтин; [ред.: С. Г. Бочаров, Н. И. Николаев]; Рос. акад. наук, Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. - Москва: Русские словари: Языки славянских культур, 2003. – С. 612.

tushunishadi. Shuning uchun, yozuvchilar o‘z asarlarida madaniy tafsilotlarga alohida e’tibor beradilar.

Masalan, “...Ertalab bo‘lganida, hamma Abu Avadni ko‘rdi. U o‘z dalasiga g‘amgin, qaddi bukilgan holda borardi va boshini al-iadamiya (kufiya uqalsiz<sup>1</sup>) bilan bog‘ladi – qasos qasamini ichgan odam uni shunday kiyadi va qasamni bajarmagunicha olib tashlamaydi....”<sup>2</sup>

Mazkur parcha suriyalik yozuvchi Mavaxib al-Kiyalining “Qasos” romanidagi arab shaxsini ko‘rsatuvchi asosiy element arablarning an’anaviy bosh kiyimi – kufiya, hisoblanadi. Boshni bir necha qatlamlarga o‘ralgan mato bilan yopish, havo qatlamini yaratish an’anasi arablarda mahalliy aholi tomonidan islom qabul qilinishidan oldin ham rivojlangan. Mahalliy aholi tasvirlangan eng qadimgi rasm-larda erkaklar boshlarini turli rangdagi mato bo‘laklari bilan yopib, echki junidan o‘ralgan halqalar bilan mustahkamlashlari tasvirlangan. Shunisi qiziqki, hozirgi kunda juda mashhur bo‘lgan qora va qizil katakli kufiyalar yaqinda, o‘tgan asrning 20-yillarda paydo bo‘lgan. Bu urf Birinchi jahon urushidan keyin sobiq Usmonli imperiyasi hududida Falastin va Iordaniyani ajratgan inglizlarning mustamlakachilik siyosati bilan bog‘liq. Ingliz mustamlakachilar “Iordaniya” dan “Falastin”ni ajratish uchun, qizilkatak kufiya kiyishni “Iordaniya”ga va qora kufiyani “Falastin”ga buyurgan.

Lekin, shuni ta’kidlash kerakki, katakli naqsh qadimgi Mesopotamiya va Iroq-qa xos qadimiy an’anadir. Aslida, “kufiya” nomining o‘zi Iroqning Kufa shahridan olingan va shu sababli Iroq aholisi ularni boshqalardan oldin kiyishni boshlagan deyiladi. Fors ko‘rfazining boshqa mamlakatlariga kelsak, ularda Britaniyaning bevosita aralashuvini boshdan kechirmagan, ular oddiy, ko‘pincha oq kufiya kiyishni afzal ko‘rishadi. Shuningdek, kufiya kiyish uslubiga ko‘ra, uning egasi Qatar, Saudiya, Kuvayt, Ummon, Bahrayn yoki Birlashgan Arab Amirliklari mintaqasidan ekanligini identifikatsiya qilish mumkin. Saudiyaliklar qizil-oq katakli kufiyani ukal bilan kiyishni afzal ko‘rsalar, Ummon uni salsa kabi o‘rashadi, Yaman esa bandana kabi bog‘laydi. Saudiya Arabistonida “kufiya” emas “g‘utra” so‘zi ishlatiladi. Gutra kufiyadan farqli o‘laroq oq rangda bo‘ladi. Bularning barchasidan ko‘rinib turibtiki, garchi arablar bir tilda so‘zlashuvchi millat bo‘lsalar ham ularni qaysi mintaqadan ekanliklarini kiyimlaridan identifikatsiya qilsa bo‘ladi. Shu sababli yozuvchilar ham o‘zning identikligiga qarab qahramonlarining kiyimini urf-odatlarini tasvirlaydi. Kufiyani uqalsiz kiyish – bu kontekstda alohida ahamiyatga ega. Qahramonning boshini uqalsiz kufiya bilan qanday bog‘lashi tavsifi qasos yoki qasam va’dasi bilan bog‘liq madaniy identiklikka ishora qiladi. Bu Suriya arab madaniyatida chuqur ildiz otgan an’ana va urf-odatlarining identifikatsiyasidir.

<sup>1</sup> Echki yoki tuya junidan to‘qilgan bog‘ich, arablar kufiya ro‘mollari ustidan mustahkamlash uchun qo‘llaydilar.

<sup>2</sup> Идрис Юсуф, Таймур Махмуд “Рассказы арабских писателей” Издательство иностранной литературы М.1955. С. 35.

Misr yozuvchisi Mahmud Teymur o‘zining “Sayyoh” nomli hikoyasida asar bosh qahramonini shunday tasvirlaydi: “Muhammad Najibek Abdulloh al-Azhar diniy maktabi yaqinidagi uyida onasi, enagasi va bir nechta sadoqatli xizmatkorlari bilan yashagan”<sup>1</sup>.

Yoki, “Najibekning hayoti yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlikda edi; uning oylik daromadi yuz Misr funtini tashkil etadi; uning norozi va shikoyat qiladigan hech narsasi yo‘q edi. Najibek qirq sakkiz yoshda edi va uning qora soqoli allaqachon oq oralagan edi. U har doim rangli yoki qora jubba kiygan va boshida keng, biroz yassilangan torbush bor edi”<sup>2</sup>.

Ko‘rib turganimizdek, mazkur parchada Mahmud Teymur misrlik arablar identifikatsiyasining ayrim jihatlari orqali Misr arab madaniyati va ijtimoiy hayotining xususiyatlarini ko‘rsatishga uringan. Najibek Muhammad Abdullohnинг obraqi orqali Misr arab identikligining bir necha jihatlari bilan tanishamiz; Najibekning “oylik daromadi yuz Misr funtini tashkil etadi” degan qismi uning ijtimoiy maqomini va Misr pul birligini ko‘rsatadi. Bu miqdor, o‘sha davr uchun katta mablag‘ hisoblanadi va uning yuqori ijtimoiy tabaqaga mansubligini bildiradi. Uning “rangli yoki qora jubba kiygan” va “boshida keng, biroz yassilangan torbush” kiyishi Misr arab madaniyatining an‘anaviy kiyim elementlari identifikatsiyasidir. Jubba va torbush (arabcha “jubba” “tarbush”) an‘anaviy Misr arab kiyimining muhim qismi hisoblanadi.

Yoki, quyidagi parchaga e’tibor qaratsak, “Va Shayx Salom javondan uchta kitob oldi: “Ming bir kecha”, “Ibn Batutaning sayohati”, “Hindiston mo‘jizalari”. Najibek hech qachon boshqa kitob o‘qimagan. Oyoq kiyimlarini yechib, oyoqlarini ostiga tiqib o‘tirar, yoniga kitoblarni qo‘yib olib bir finjon qahva yoki suvdan ho‘plab, o‘qishni boshlardi.”

“Ming bir kecha”, “Ibn Batutaning sayohati” va “Hindiston mo‘jizalari” arab madaniyati va adabiyotiga klassik namunalari hisoblansa, Najibekning o‘qish paytida oyoq kiyimlarini yechib, chordana qurib o‘tirishi va qahva ichishi arablarning o‘ziga xos urflaridan. Najibekning faqat ma’lum kitoblarni o‘qishi, misrlik arablarning madaniy qiziqishlari va o‘qishga bo‘lgan yondashuvini aks ettiradi. Uning kitob tanlovi misrliklarning madaniyat va tarixga bo‘lgan qiziqishni ko‘rsatadi va bu, arab olamida qahramonlik qissalari, sayohatnomalar va tarixiy mavzularga bo‘lgan qiziqishini aks ettiradi.

G‘assan Kanafoniyning “Quyoshdagi odamlar” romanida yaratilgan obrazlar vatanidan quvilgan falastinliklardir. Yozuvchi fantaziyasining bosh qahramonlari his-tuyg‘ularimizni hayratda qoldiradigan dahshatli qismatga duch kelishadi. G‘assan Kanafoniyning siyosatini uning qayg‘usi, hayot va o‘lim o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan ontologik va naturalistik darajadagi Falastin masalasiga qaratilishi nuqtayi nazaridan tushunish kerak.

<sup>1</sup> Идрис Юсуф, Теймур Махмуд “Рассказы арабских писателей” Издательство иностранной литературы М.1955г. С. 10.

<sup>2</sup> O‘sha kitob .S.10.

Yoshi o'n oltidan ellikkacha bo'lgan erkaklar boshqacha yashashlari hamda Falastindan quvilganlar hayotiga o'zlarining shaxsiy quvilish tajribalaridan, shuningdek, o'tmishni qanchalik yaxshi eslashlari va o'z taqdirlarini o'tmish bilan qanchallik ko'p bog'lashlaridan kelib chiqib munosabatda bo'lishlari ko'rsatilgan. Erkaklar, yoshidan tashqari, o'zlarining qishlog'i yoki tug'ilgan makoniga, shuningdek, hozir quvg'inda bo'lgan joyiga qarab ham farqlanadi.

Ular arab dunyosi bo'ylab tarqalib ketishgan hamda faqat qochqinlar lagerlari va vaqtinchalik uylarini tark etishga qaror qilganlaridagina bir toifaga birlashadilar. Asarda ushbu farqlarning har biri "Quyoshdag'i odamlar"ning shaxsiyati va o'ziga xosligiga ta'sir qilishi, falastinliklarning identikligi yaxlit bir narsa emasligi ko'rsatilgan. Bu odamlar, ularning tajribalari va shaxsiy individualliklaridan Falastin identikligining o'zi ko'plik va xilma-xillik ekanligini ko'rsatishda foydalaniadi.

G'assan Kanafoni o'z romanida bunday tuzilishga erishish uchun qo'llaydigan hikoya taktilaridan biri-bosh qahramonlar haqida umumiy gaplarni aytishdan qochishdir. Aksincha, asar qahramonlari asta-sekin, ularning xotira va harakatlari orqali, turli jihatlardan ochib beriladi. G'assan Kanafoni o'z personajlarini xiraxandon sharhlarsiz yaratarkan, o'zi boshlovchi rolini o'ynaydi: kitobxonga o'z qahramonlarini taqdim etadi, ularning xotiralari bilan tanishish, harakatlari o'z nuqtayi nazaridan tushunish imkonini berib, ularning kimligini tasavvur qilishga chorlaydi. Shunday qilib, asar qahramonlarini kitobxon bilan solish-tirish orqali ularni vaziyatning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib shakllanadigan universal qahramonlar sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Biz qahramonlarni ularning o'z hikoyalaridan va romandagi boshqa qahramonlarga munosabatidan bilib olamiz. Bu roman har bir qahramonning qalbi va ongiga bevosita kirish imkonini bergani uchun, Edvard Said tasvirlaganidek, qahramonlarga rollarni taqsimlamaydi, balki ularni harakatga "undaydi"<sup>1</sup>.

G'assan Kanafoni o'z qahramonlari uchun dunyo yaratadi, ularning tarixini bayon etadi va aftidan, vaziyatga qanday munosabatda bo'lishni o'zlariga qo'yib beradi. Kitobxonlar asar qahramonlarini romandagi vaziyatga munosabatidan tanib oladigan ushbu uslub orqali qahramonlar tanishga aylanadi, shu bois ularning ichki kechinmalari o'quvchiga tushunarli bo'ladi (u o'zini ana shu joyda tasavvur qilishi mumkin), biroq ayni vaqtida matnda qahramonlarga alohida shaxslar bo'lish imkonini yaratiladi.

Misol uchun, roman qahramoni Abu Qays arab va musulmon identikligida oila boshlig'i hisoblanadi, lekin u ushbu mavqedagi odamga xos bo'lgan "an'anaviy" hokimiyat yoki hurmatga ega emas. Abu Qaysning do'sti uni Kuvaytga ketishga ko'ndirayotgan sahnada u oilaning "an'anaviy" boshlig'i sifatidagi mavqeyini saqlab qolishga qanchalik urinayotgani va qanday qilib muvaffaqiyatsizlikka uchragani ko'rsatilgan. Garchi Abu Qaysning: "Bu juda uzoq yo'l. Men esa keksayib qolganman; sen kabi yurolmayman. Yo'lda o'lib qolishim mumkin"<sup>2</sup>, – degan so'zlaridan borishni

<sup>1</sup> Edward W. Said The Question of Palestine. Vintage New York. 1992. 122 bet.

<sup>2</sup> غسان كنفانطي رجل في الشمس. سنة النشر: 1963. ص. 47.

istamayotgani aniq bo'lsa-da, u do'stining taklifini qat'iy rad eta olmaydi, aks holda do'stining nazarida zaif bo'lib qoladi. Shundan keyin u obro'sini saqlab qolish uchun xotiniga murojaat qiladi. Asarda Abu Qays "bormang, bu juda xavfli", deb aytarmikin, degan xayolda qayta-qayta xotiniga yuzlanadi, lekin u bunday qilmaydi. Garchi uni aqliy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan zaif hisoblashsa-da, xotini uning oiladagi erkaklik maqomini saqlab qolishida yordam berishiga umid qiladi. Holbuki, xotini undan ketmasligini iltimos qilsa, usiz xo'jalikni uddalay olmasligini aytsa bo'ldi edi – u obro'sini saqlab qolardi. Ammo xotini bunday ish tutmadi va shu tariqa uni o'zi istamagan safarga borishga majbur qildi. Ayni vaqtida xotinining Abu Qaysga obro'sini saqlab qolishida ko'maklashishdan bosh tortishi arab oilasidagi an'anaviy gender rollar va Abu Qaysning uyidagi bu bilan bog'liq umidlar batamom barbod bo'lganidan dalolat beradi.

G'assan Kanafoniylas arsada vatanidan yiroqda yashayotgan falastinliklar ha-yotining qiyinchiliklari va ma'nosizligini ko'rsata oldi. G'assan Kanafoniylas qarshilik ko'rsatish haqidagi badiiy adabiyotni ekzistensialistik va naturalistik nuqtayi nazardan o'qish unga yangi mazmun va maqsad bag'ishlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, o'tgan yuz yil ichida arab xalqi o'z vatanida ham, quvg'inda ham, makon va zamonda kim bo'lganliklari va kim ekanliliklari haqida hikoya qiluvchi rivoyatlar, hikoya va romanlarni yaratdi. Bu badiiy asarlar ko'lami, g'oyasi va mavzusi jihatidan turlicha bo'lsa-da, ularning milliy o'zligini aniqlash, shakllantirish va namoyon etishda bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini bosib o'tdi, yozuvchilar arab millatining o'ziga xoslik masalasini o'z asarları sujeti, asar bosh qahramonining, epizodik qahramonlarning ichki kechinmalari, turmush tarzi, o'sha vaqtga aloqador tarixiy voqe-a-hodisalar, urfatlar, vatanga mehr-muhabbatlari, boshqa turli badiiy vositalar yordamida izchil rivojlantirib boradilar. Asar qahramonining xayoliy hayotining o'ziga xosligi ijtimoiy va madaniy me'yirlarga, dunyoqarash g'oyalariga, xulq-atvor stereotiplari-ga nisbatan pozitsiyasini aniqlash va ularning inson hayotidagi ahamiyati va ma'-nosini baholash jarayonida millatning o'ziga xosligi me'yorlari shakllanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Бахтин, Михаил Михайлович. Собрание сочинений: в 7 т. Т. 1: Философская эстетика 1920-х годов / М. М. Бахтин; [ред.: С. Г. Бочаров, Н. И. Николаев] ; Рос. акад. наук, Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. - Москва: Русские словари: Языки славянских культур, 2003. – С. 612.
2. Идрис Юсуф, Теймур Махмуд "Рассказы арабских писателей" Издательство иностранной литературы. М., 1955. –С. 35.
3. Edward W. Said The Question of Palestine. Vintage New York. 1992. C.122 . غسان كنفانيظ رجال في الشمس. سنة النشر: 1963. 47 ص